



**XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI
ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI**

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 12 - iyul

VI-61-131-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Tuman mahalliy budgetining 2023-yil I-chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomiga muvofiq tuman budgetining 2023-yil 1-chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomi bilan mahalliy budgetlarning qo‘srimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi, tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budgetining qo‘srimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budgetining 2023-yil I-chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 500,0 mln.so‘mni tashkil etganligi va ushbu manbalardan ajratilgan mablag‘lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budgetining qo‘srimcha manbalari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

4. Tuman mahalliy budgetining qo‘srimcha manbalari hisobidan mablag‘ oluvchilarining rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Kabulova zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining
2023-yil 12-iyuldagি
VI-61-131-8-109-K/23-son qaroriga
1-ilova

Angor tuman mahalliy budgetining 2023-yil 1-chorak yakuniga ko‘ra qo‘shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag‘lar

T/r	Tashkilotlar nomi	Sohalar bo‘yicha ajratilgan mablag‘ maqsadi	Miqdori (ming.so‘mda)	Foiz hisobida
1	2	3	4	
	Jami tuman budgetining 2023-yil 1-chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar	500 000,0	100%	
	Jami summasi	50 000,0	10,0%	
I.	Tuman hokimligi va boshqa budget tashkilotlarini ta’mirlash va moddiy texnika bazasini mustahkamlash hamda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun	50 000,0	10%	
1,1	Tuman hokimligi	Tumanning "Guliston" mahallasi aholisini uzlusiz elektr-energiyasi bilan ta’minlash maqsadida transformator xarid qilish xarajatlari uchun	50 000,0	10,0%